ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

MAKTABDA STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Termiz davlat Pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va
metodikasi 1-kurs magistranti
Panjiyeva Xaniza Bobir qizi

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta’lim sohasida keng qo‘llanila boshlagan integratsiyalashgan ta’lim va STEAM (Fan, texnologiya, muhandislik, san’at, matematika) dasturlarining boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati, metodikasi va samaradorligini o‘rganadi.

Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlararo bog‘lanishlar orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, loyihalar asosida o‘qitish va kreativ yechimlarni topish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, integratsiya, amaliyot, boshlang‘ich ta’lim, loyihalar asosida o‘qitish, kreativlik, ta’lim innovatsiyalari.

Zamonaviy dunyoda ta’lim sohasida yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarning paydo bo‘lishi bilim olish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib kelmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida qo‘llaniladigan integratsiyalashgan ta’lim va STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) dasturlari bolalarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda pedagogik amaliyotda an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, fanlararo bog‘lanishlarga asoslangan, amaliy ko‘nikmalarni rag‘batlantiruvchi yondashuvlar qo‘llanilmoqda. STEAM ta’limi bolalarga nafaqat fundamental bilimlarni, balki ularni qo‘llash, mantiqiy fikrlash va ijodiy yechimlarni topish qobiliyatlarini ham shakllantirishga qaratilgan. Bu kabi tadqiqotlar natijasida, boshlang‘ich ta’limda integratsiya va STEAM dasturlarining o‘rni, ahamiyati, shuningdek, xorijiy va mahalliy tajribalar asosida ularni
ta’lim jarayoniga tatbiq etish usullarini tahlil qilishdan iborat. . Xususan, integratsiyalashgan ta’lim – bu turli fanlarni o‘zaro bog‘lab, murakkab bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuv, ya’ni, bolalarga murakkab tushunchalarni oddiy va qo‘l keladigan tarzda o‘rgatish, STEAM esa, STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) ga san’at (Arts)ni qo‘shish orqali yaratilgan innovatsion yondashuv bo‘lib, asosiy maqsadi, ijodkorlik va mantiqni birlashtirish – masalan, dasturlashni badiiy loyihalar bilan o‘rgatish, real hayotga moslashtirish-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

robototexnika, 3D-dizayn kabi sohalarda qo‘llash, gender tenglik–qizlarni texnik fanlarga jalb qilish hisoblanadi.

Ta’lim tizimida STEAM yondashuvi boshlang‘ich sinflarda kreativlik– san’at (masalan, rasim chizish) orqali matematik tushunchalarni o‘rganish, muhandislik–oddiy qurilmalar yasash (LEGO, robototexnika), kompyuter savodxonligi- dasturlash asoslari (Scratch Jr, Blockly) jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

STEAMning pedagogik samaradorligi sifatida, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, STEAM usullari bolalarning mantiqiy fikrlashini 30% ga, ijodkorlik qobiliyatini 40% ga oshiradi.

Ya’ni, STEAM - bu nafaqat fanlar birlashmasi, balki kelajak avlod uchun yangi dunyoqarash yaratishdir. Boshlang‘ich sinflarda integratsiya va STEAMni qo‘llash usullarida amaliy misollar sifatida, matematika + san’at: geometrik shakllarni rangli qog‘ozlar bilan yasash, symmetry (simmetriya) tushunchasini naqshlar orqali tushuntirish- tabiiy fanlar + muhandislik: “Qalampir qo‘yish” loyihasi – o‘simlik o‘stirish va kuzatish jurnali, oddiy mexanizmlar (lever, ramp) yasash, dasturlash + matematika - Scratch Jr dasturi orqali sodda algoritmlar yaratishni ko‘rsatish mumkin. Hamda, “STEAM Academy” loyihasi – Toshkent va Nukus shaharlarida boshlang‘ich sinflar uchun eksperimental dasturlari, “Raqamli avlod” dasturi – 1-4-sinflarda dasturlash asoslarini joriy qilishni O‘zbekistondagi amaliy tajribalar sifatida aytish mumkin. Shuningdek, Finlandiya modeli- hodisalar asosida o‘qitish (Phenomenon-Based Learning) usulini adaptatsiya qilish masalan, tabiat hodisalarini matematika, san’at va texnologiya bilan bog‘lab
o‘rganish, Singapur Tajribasi- “Math + Art” integratsiyasini kuchaytirish, Geometriya va ranglar nazariyasini birlashtirgan dasturlarni ishlab chiqish, “AQSh Amaliyoti”-Next Generation Science Standards (NGSS) ni mahalliy sharoitga moslashtirish, loyihalar asosida o‘qitishni maktablarga joriy qilish xalqaro tajriba asosidagi takliflar sifatida kiritilmoqda.

STEAM ta’limiy yondashuvi fanlararo integratsiyani rag‘batlantirib, o‘quvchilarni kompleks dunyo muammolariga yechim topishga tayyorlaydi. STEAM fanga joriy etilganda, u nafaqat an’anaviy fan darslarini yaxshilaydi, balki o‘quvchilarni innovatsion tadqiqotlar, global muammolar va yangi texnologiyalar dunyosiga tayyorlaydi. STEAM yondashuvining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi bolalarning kognitiv, ijtimoiy va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda bolalar bilimni faol tajriba orqali qurishadi, STEAM loyihalari (masalan, LEGO yordamida qurilish) orqali tushunchalarni mustaqil kashf etishadi.

Fanlararo aloqadorlik va STEAM dasturiga misol sifatida, “Qushlar uchun uya loyihasi”–biologiya (hayvonlar harakati) + muhandislik (qurilish), 5–12 yoshda

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

miyaning plastikligi yuqori bo‘lgani uchun fanlararo integratsiya kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi (OECD, 2022)matematika+san’atda geometrik shakllarni rangli origami yasash orqali o‘rganish, raqamli san’at: Pixel art yordamida kasrlar tushunchasi (masalan, ¼ qismini bo‘yash), fan (Science) + texnologiyada tabiat hodisalari: “O‘simliklar fotosintezi” loyihasi – har bir kun davomida o‘simlik o‘sishini kuzatish (ilmiy usul) + timelapse video yaratish (texnologiya), “Robot yordamchi”: o‘quvchilar Arduino yordamida suvni avtomatik sug‘oradigan qurilma yasaydilar, 7 yoshdan boshlab dasturlashni san’at va matematika bilan o‘rgatish (Scratch yordamida multfilm yaratish), muhandislik+fanda qurilish loyihalari(qog‘ozdan minoralar qurib, ularning barqarorligini tekshirish (gravitatsiya va muvozanat)) kabilarni misol qilish mumkin. Bu bog‘liqlik shuningdek guruh loyihalari asosida o‘quvchilarning kommunikatsiya va liderligini oshiradi (PISA, 2022). Ushbu jarayonlardan ko‘zlangan natija o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari 35% oshirgan. Zero, boshlang‘ich ta’limda STEAMni joriy etish bolalarni tadqiqotchi, innovator va kreativ mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Asosiy muvaffaqiyat kaliti – o‘yin, loyihalar va real hayot misollari orqali o‘qitish hisoblanadi.

Xulosa sifatida, STEAM markazlarini kengaytirish-Toshkent va Nukusda tajribalarni barcha viloyatlarga tarqatish, har bir maktabda mini-STEAM laboratoriyalari ochish, o‘qituvchilar tayyorlash- Xalqaro hamkorlikda (masalan, Erasmus+ loyihalari) STEAM bo‘yicha malakali

o‘qituvchilar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, “O‘quv dasturlarini yangilash”-Davlat standartlariga STEAM modullarini kiritish, masalan, 1-4-sinflar uchun “Tabiat + Matematika +Dizayn” integratsiyalashgan fanlar yaratish, jamiyatni jalb qilish-ota-onalar bilimini oshirish, STEAM mavzusida ota-onalar uchun seminar va master-klasslar tashkil etish, xususiy sektor

ishtiroki-IT kompaniyalarini maktablar bilan hamkorlikka jalb qilish (masalan, “IT Park” loyihalari), ijtimoiy media platformalari- STEAM loyihalari uchun maxsus YouTube kanali yoki Telegram-bot

yaratib, yosh avlod qiziqishini oshirish kabilarni O‘zbekiston kontekstiga moslashtirilgan yechimlar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.“STEAM in Early Childhood” (Demetra, 2021).

2.“Integrating STEM in Primary Schools” (Angela Fitzgerald, 2020).

3.Yakman, B. (2010). STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education.

4.OECD (2021). Early Childhood Education and STEAM: Global Practices